



## MUHAMMADJON HAKIMOV ILMIY MEROSINI YORITUVCHI KATALOGLARNING QISQACHATA VFSIFI

Qarshiyeva Feruza Zafar qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [feruzazafarovna756@gmail.com](mailto:feruzazafarovna756@gmail.com)

**Kalit so'zlar:** manbashunoslik, matnshunoslik, qo'lyozma nusxa, toshbosma nusxa, xattot, xattotlik, katalog.

**Ключевые слова:** источникование, текстология, рукописный экземпляр, литографический экземпляр, каллиграф, каллиграфия, каталог.

**Key words:** source studies, textual studies, manuscript copy, lithographic copy, calligrapher, calligraphy, catalog.

Katalog (yunoncha: katalogos – ro'yxat) – muayyan narsalar (masalan: kitob, eksponat, tovarlar...)ning ma'lum tartibda tuzilgan ro'yxati; ularni topishni osonlashtiradi. Alifbo tartibida tuzilgan ro'yxat. Bunday ro'yxatlarning bir-nechasini Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari uchun mukammal tarzda tuzgan olim Muhammadjon Hakimovdir. Ustoz olim o'zining ilmiy izlanishlari davomida bir qancha kataloglar yaratdi. Ulardan birinchisi H.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti fondidagi Alisher Navoiy qalamiga mansub 24 ta asarning 254 ta qo'lyozma nusxasi tavsifini o'z ichiga olgan "Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi" nomli katalogi. Kitob 1983-yilda nashr etilgan bo'lib, H.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti fondidagi Alisher Navoiy qalamiga mansub 24 ta asarning 254 ta qo'lyozma nusxasi tavsifini o'z ichiga oladi. Katalog ko'rinishidagi kitob matnshunoslik va manbashunoslik xarakterida tuzilgan va ayrim noyob nusxalarga



monografik tavsif berilgan. Mazkur katalog 200 sahifadan iborat bo'lib unda so'z boshi va qo'lyozmalar tavsifidan so'ng turli ko'rsatkichlar keltiriladi:

1. Asarlar nomi ko'satkichi;
2. Kotiblar ismi ko'rsatkichi;
3. Sahhoflar ismi ko'rsatkichi;
4. Qo'lyozmalarning ko'chirilish tarixi ko'rsatkichi;
5. Xattotlik va badiiy kitobat san'ati jihatidan alohida ahamiyatli qo'lyozmalar ko'rsatkichi;
6. Qo'lyozmalar tavsif raqamining inventor raqamiga muvofiqlik ko'rsatkichi;
7. Qo'lyozmalar inventor raqamining tavsif raqamiga muvofiqlik ko'rsatkichi;

Ushbu katalog tuzilishida olim tomonidan bunga qadar tuzilgan Navoiy asarlari kataloglarining ma'lum prinsiplariga suyanilgan va shu bilan bir qatorda fonddagi har bir qo'lyozmaning o'z xususiyatidan kelib chiqib uni tavsiflashga ijodiy yondashiladi. Qo'lyozmalarni tavsif etishda, olim tomonidan, eng avvalo, ularning Navoiy merosini har taraflama o'rganish uchun asos bo'la oladigan ilmiy qiymatlarini yoritib berishga alohida ahamiyat berilgan. Har bir qo'lyozmaning ko'chirilish tarixi, joyi, kotibi va boshqa qator paleografik belgilari tavsifda keltiriladi.

Katalogda Navoiyning "Badoiyul-bidoya" debochasi, "Badoiyul-bidoya", "Xazoyinul-maoniy" debochasi, "Xazoyinul-maoniy", "Nazmul-javohr", "Arbain", "Xamsa", "Lisonut-tayr", "Mahbubul-qulub", "Majolisun-nafois", "Xamsatul-mutahayyirin", "Holati Sayid Hasan Ardashev", "Munshoat", "Vaqfiya", "Mezonul-avzon", "Tarixi mulki Ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarining qo'lyozmalari nusxalari kiritilgan. "Ushbu qo'lyozma nusxalar orasidagi eng qadimiysi 216 invertar raqamli "Badoiyul-bidoya" devoni hisoblanib 1486 – yilda xattot Ali binni Nur tomonidan Hirot shahrida ko'chirilgan nusxa bo'lsa, katalogdagi zamonimizga eng yaqin qo'lyozma

“Mahbubul-qulub” asarining bir nusxasi bo‘lib, 1939-yilda Muhurkan Xudoybergan Devonov tomonidan Xorazimda ko‘chirilgan”<sup>43</sup>.

Katalogda olim tomonidan har bir nusxaga alohida e’tibor bilan qaraladi va bundan tashqari har bir asarning nusxalari atroflicha o‘rganiladi. Masalan Alisher Navoiyning birgina “Xazoyinul-maoniy” asarining har xil tartibda kitobat qilingan 13 ta nusxasi alohida tavsif qilinadi. Ushbu 13 ta nusxadan 6 tasida to‘rt devon alohida-alohida, ketma-ket, qolgan yettasida esa to‘rt devon tarkibidagi barcha janrlar umumiy qilib tuzilgan bir devon holiga keltirilib berilganligi va umumiy qilib berilgan devonlarning ba’zilarida g‘azallar harflar bo‘yicha qaysi devondan olinganligi tartib bilan ko‘rsatilganligi olim tomonidan o‘rganib chiqilgan va barchasi katalogda keltirib o‘tiladi. Olim “Xazoyinul-maoniy”ning ikki nusxasini XVIII asrga mansub ekanligini taxmin qilsa, qolgan o‘n bitta nusxa XIX asr oxiri XX asr boshlarida kitobat qilinganligini takidlaydi va bu mulohazalari o‘z tasdig‘ini topadi.

“Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining katta qismini “Xazoyinul-maoniy” she’rlaridan tanlab tuzilgan terma devonlar tashkil qiladi. Terma devonlarni “Xazoyinul-maoniy” nusxalaridan ajratib olishda g‘azallarning miqdori hamda boshqa kichik janrlar muqoyosa qilindi va g‘azallar miqdori 1500 dan kam bo‘lgan qo‘lyozmalar terma devon nusxalari qatoriga qo‘yildi”<sup>44</sup>. Olimning takidlab o‘tishiga qaraganda terma devonlar hajm jihatidan turlicha bo‘lgan. 1000 – 1500 g‘azalni o‘z ichiga olgan nusxalar juda kam uchraydi. Terma devonlarning ko‘pchiligida 400-600 tadan g‘azal, kichik janrlardan mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarjiband, qit’a, ruboiy, tuyuq, muammo, fard kiritilishi xarakterlidir. Shu tariqa ustoz olim tomonidan qo‘lyozmalar instituti fondida Navoiy terma devonlarining 75 ta nusxasi borligi qayd etilgan va ularning har biri tarkibiga mufassal tavsif berilgan. Shu bilan bir qatorda ustoz olim tomonidan Navoiyning “Garoyibus-sig‘ar” devonining nusxalari deb hisoblab kelingan bir qancha “Ashraqat” bilan boshlanuvchi nusxalar chuqur o‘rganib boshqa g‘azallarning solishtirilishi natijasida to‘rt devondan tuzulgan terma devon nusxalari qatoriga kiritilgan.

<sup>43</sup> М.Хакимов "Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавфиси // Фан.-Тошкент-1983

<sup>44</sup> М.Хакимов "Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавфиси // Фан.-Тошкент-1983



Qo‘lyozmalar instituti fomdida Navoiy “Xamsa”sining besh dostonini birlashtirgan mukammal qo‘lyozmalarning 27 tasini olim mufassal o‘rganib ilm ahliga tanishtiradi. “1580-yil 26-aprelda Abulmakorim Abdulvahhob al-Hijoziy tomonidan ko‘chirilib tugallangan 2630-1 raqamli nusxa “Xamsa” bo‘yicha olib boriladigan tekstologik tadqiqotlarga mo‘tabar manba bo‘la oladi hamda XVI asr Buxoro badiiy kitobat san’atining mo‘jizakor asarlaridan biri bo‘lib qoladi.”<sup>45</sup>

Alisher Navoiyning oltinchi epik dostoni “Lisonut-tayr” dostonini ham turli davrlarning mahsuli bo‘lgan 10 ta nusxasi fond katalogiga kiritilgandir. Ulardan ikkitasi kulliyot tarkibida, beshtasi “Xamsa” bilan birgalikda, uchtasi alohida qo‘lyozma holatidaligi qayd etilgan.

Olim tomonidan fond tasarrufida “Majolisun-nafois” tazkirasining uchta qo‘lyozmasi, “Mezonul-avzon”ning uchta nusxasi, “Mahbubul-qulub”ning o‘n to‘qqizta, “Munshoat”ning uchta, “Vaqfiya”ning yettita, “Xamsatul-mutahayirrin” ning uchta, “Holati Said Hasan Ardasher”ning bitta, “Tarixi anbiyo va hukamo”ning bitta, “Tarixi mulki ajam”ning ikkita, “Arbain”ning to‘rtta, “Nazmul-javohir”ning ikkita nusxalari borligi aniqlandi va bularning barchasiga mufassal tavsif berib o‘tildi.

Zahmatkash olim “Alisher Navoiyning “Xamsa”sining qo‘lyozmalari katalogini ham tuzadi. Ushbu katalog ham juda katta ilmiy qimmatga ega bo‘lib, unda “Xamsa” asari qo‘lyozmalari mufassal o‘rganilib katalog tuzilgan.

Ustoz olim tomonidan tuzilgan bu kataloglar barcha navoiyshunos, matnshunos va manbashunos tadqiqotchilar uchun juda katta qulaylik yaratgan mo‘tabar yangilik va ilm ahli uchun boylik bo‘lib qoldi. Ustozning har bir nusxaga alohida yondoshishi, uning ko‘chirilish tarixi, joyi, vaqt, ko‘chirgan kotib, saqlanish darjasи, asarning tarkibi, salmog‘i. janrlar tahlili, to‘la-noto‘la, tugallangan yoki tugallanmaganligi, varoq sifati, o‘lchami, muhri va yana shu kabi bir qator detallarga ham kata diqqat qaratganligi yosh

<sup>45</sup> М.Хакимов "Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи // Фан.-Тошкент-1983



tadqiqotchilar uchun birmuncha qulaylik yaratadi. Bu kataloglarda olimning juda katta mehnati va ilmi yashiringandir.

Olim uzoq yillar davomida faoliyat yuritgan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeysi arxivida olimning ilmiy merosi saqlanmoqda. Bugungi kunda olimning arxivdagi merosiga mazkur muzey ilmiy xodimi Gulchehra Abdullayeva tomonidan katalog tuzilgan. Ushbu katalog filologiya fanlari nomzodi, dotsent Otabek Jo‘rabo耶ev taqrizi bilan 2023-yilda 100 nusxada nashr etildi. Katalog navoiyshuos va manbashunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Hakimov arxiv hujjatlari yig‘indisidir. “Muhammadjon Hakimov arxivi 1996-yilda qabul qilib olingan, hujjatlar 48 ta papkaga joylangan.”<sup>46</sup> Hujjatlat quydagicha tasniflarga ajratib o‘rganilgan:

1. M.Hakimovning “O‘zbek yozuvchilarining asarlarida maqol, matal va oforizmlar” mavzusidagi nomzodlik ishiga oid hujjatlar. (1-42)
2. M.Hakimovning “Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodiyoti” mavzusidagi doktorlik ishiga oid hujjatlar. (43-101)
3. M.Hakimov tayyorlagan monografiyalar. (102-107)
4. M.Hakimovning “O‘zbek sovet ensiklopediyasi”da nashr etilgan ma’lumotlari.(108-294)
5. M.Hakimovning ilmiy ishiga taqrizlar va maqolalari. (295-500)
6. M.Hakimovning nomzodlik va dokrorlik ishlariga yozilgan taqriz va maqolalari.
7. M.Hakimovning radiodagi bir-necha eshittirishlarga tayyorlagan ssenariylari, berilgab intervyuilar, bir-necha allomalar haqida ma’lumotlar.(277-770)
8. M.Hakimov tomonidan tayyorlangan lug‘atlar, ko‘rsatkichlar, avtobiografik ma’lumotlar, majlis protokollari, Qo‘lyozmalar instituti faoliyati, olimlari haqida, bir-necha allomalar haqida, kartochkalarga yozilgan ma’lumotlar, B.Boyqobilov she’riy romaniga kiritilgan Navoiy g‘azallarining nasriy bayoni haqida ma’lumotlar. (771-866)

<sup>46</sup> Muhammadjon Hakimov arxivining katalogi – Toshkent, 2023. G.Abdullayeva; 5-b.

Arxiv hujjatlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ular orasida ko‘plab muhim ilmiy faktlarga boy maqolalar va boshqa hech qayerda rasmiy qayd etilmagan qoralama ma’lumotlar borligini angladik. Masalan, olimning № 470 raqam ostidagi saqlanayotgan “Atoqli adabiyotshunos” maqolasi “Istedod va burch”, “Ogohiy lirikasi” kitoblarining muallifi bo‘lgan olim Raxmat Majidiy ilmiy faoliyati haqida bo‘lsa, yana shunday № 479 raqam bilan saqlanuvchi hujjatda shoir va olim, filologiya fanlari doktori Xolid Rasul haqida so‘z yuritilgan maqola saqlanmoqda. Olimning № 149 – 293 raqamigacha bo‘lgan hujjatlar “Navoiy qomusi” uchun tayyorlagan 140 dan ziyod katta-kichik maqolalaridir. Eng muhimi, ular 1985-yildan yozila boshlangan. Bu ma’lumotlar orasida buyuk o‘zbek shoiri asarlarini asrlar davomida ko‘chirgan xattotlarga tegishli ma’lumotlar alohida o‘ringa ega. Bu borada ham ustoz olim uzoq yillik izlanishlar olib borgan. Arxivning №107 raqamli hujjati “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar” nomli 60 varoqdan tashkil topgan risolasida va bir qancha maqolalarda (№130, №169, №170, № 319,...) Sultonali Mashhadiy, Abdujamil kotib, Ali ibn Nur, Muhammad Toqiy va boshqa kotiblar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Olim uzoq yillik mehnat faoliyati davomida Respublikamiz bo‘ylab muntazam ilmiy safarlarda bo‘lib, ko‘plab qo‘lyozmalarni qidirib topgan va ularni ilmiy tafsif etib ilm ahliga taqdim etgan. Bu boradagi izlanishlarini arxivdagи № 312 raqamli hujjatda atroflicha bayon etadi. Ushbu hujjatda namanganliklarning qo‘lyozma merosimizni to‘plashdagi hissasini yuqori baholaydi. Namangan viloyatidan topilgan qo‘lyozmalar haqidagi ma’lumotlar ham arxiv hujjatlari orasiga kiritilgan. Arxivning №314 raqam bilan belgilan hujjatida olimning “Noyob topilma” nomli maqolasi o‘rin olgan. Maqolada ozarbayjonlik Bayram Horun o‘g‘li Toyirbekovdan olingan Alisher Navoiyning “Xamsa” va “Lison ut-tayr” asari qo‘lyozmalari haqidad mufassal ma’lumotlar keltiriladi. Keyingi hujjatlarda “Majolis un - nafois”ning XVI asrda ko‘chirilgan nodir nusxasi(№316), “Navoiy “Kulliyot”ini tafsiflash tajribasidan”(№318), “Bashariyatga buyuk tuhfa”(329) deya nomlangan “Xamsa” asari haqidagi katta ilmiy qimmatga ega bo‘lgan maqolalar keltiriladi.

Muhammadjon Hakimov arxiv hujjatlar orasida o'sha davr tadqiqotchilarining dissertasiyalariga olim yozgan taqrizlar ham alohida o'rin olgan. Nasimxon Raxmonovning "Kultegin yodnomasning badiiy xususiyatlari"( №514) nomli nomzodlik ishi uchun, Nurboy Jabborovning "Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari"( №534) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi uchun, Porsoxon Shamsiev tayyorlagan "Alisher Navoiy. Hikoyatlar" risolalariga yozilgan taqrizlar shular jumlasidandir. Yana M.Hakimovning nomzodlik va doktorlik ishiga olimlarimiz tomonidan yozilgan taqrizlar ham arxiv hujjatlari orasida saqlanib qolgan. Bugun bu taqrizlar saralanib, zarur ilmiy sharhlar bilan chop etilsa, mutaxassislar uchun boy ilmiy manba bo'la oladi.

Katalog so'ngida asar nomlari, ismlar ko'rsatkichi va geografik nomlar ko'rsatkichlari keltirilgan. Bu ko'rsatkichlar tadqiqotchilar uchun yanada qulaylik yaratadi.

Katalog ham bugungi kun ilm ahli uchun juda katta ilmiy boylikdir. Unda ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. So'z boshidagi ba'zi ma'lumotlar bilan arxiv hujjatlari orasida noaniqliklar mavjud, va ayrim imlo xatolari uchraydi. Ammo bu kichik kamchiliklar katalogning katta ilmiy qimmatiga putur yetkaza olmaydi. Ushbu katalog bugungi kun va bundan keying adabiyotshunos va matnshunos tadqiqotchilar uchun juda katta ilmiy boylikdir.

Biz tuzuvchiga ushbu xayirli ish uchun minatdorchilik bildiramiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi" – Toshkent. "Fan", 1983-y.
2. D.Yusupova "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)" – Toshkent. Tamaddun-2016
3. M.Hakimov "Navoiy "Xamsa"si qo'lyozmalarining tavsifi" – Toshkent. "Fan", 1976-y. (Q.Munirov bilan hamkorlikda)
4. G.Abdullayeva "Muhammadjon Hakimov arxivining katalogi" – Toshkent. "Bilim va intellectual salohiyat", 2023-y.



5. "Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar" – Toshkent. "Fan", 1991-y.
6. M.Hakimov "Sharq manbashunosligi lug'ati"- Toshkent. "Davrpress NMU", 2013-y.
7. P.Shamsiyev "O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar" – Toshkent. "Fan", 1986-y.
  
8. A.Habibullayev "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" – Toshkent. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2000-y.
9. Sh.Sirojiddinov, S.Umarova "O'zbek matnshunosligi qirralari" – Toshkent Akademnashr, 2015-y.
10. Sh.Sirojiddinov "Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" – Toshkent Akademnashr, 2011-y.
11. M.Xasaniy, A.Habibullayev "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari" – Toshkent. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2012-y.